

**INGLIZ TILIDAGI BADIY ASARLARDA VA INTERVYULARDA  
SAVOL-JAVOB DIALOGIK DISKURSINING QO’LLANILISHI**

*Mehmonova Ozoda Ravxshan qizi*

*Quvasoy shahar, 1-IDUM, ingliz tili o’qituvchisi*

*ozoda.mekhmonova90@mail.ru ORCID ID 0009-0005-8125-7362*

**Annotatsiya.** Maqolada hozirgi kunda tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri bo’lgan, o’zbek va ingliz tilidagi dialogik diskurs va uning o’ziga xos hususylari tahlil qilingan. Maqolada ingliz tilida badiy asarlarda va intervylarda qo’llanadigan savol-javob dialogik diskursining pragmatik va semantik masalalari o’rganilgan. Bundan tashqari ellipsis hodisasi va uning suhbat jarayonida qo’llanilishi dialog parchalari misolida ko’rib chiqilgan.

**Kalit so’zlar:** dialog, adresat, intervyu, replika, diskurs, ellipsis, lisoniy birliklar, pragmatic vositalar.

Savol-javob dialogik diskursini o’zida ifoda etgan muloqot turlaridan biri bu intervyyudir. Badiy adabiyotdagi dialoglardan yozuvchi muloqot sodir bo’layotgan joy, makon, ijtimoiy holat, muloqot ishtirokchilarining psixologik holati, yoshi, jinsi, mavqeい va ichki kechinmalarini ta’sirli tarzda o’quvchiga yetkazib berish maqsadida foydalanilsa, ommaviy axborot vositalari orqali namoyish etiladigan intervylular kuchli ta’sir kuchiga ega real suhbatlardir. Dialogning savol-javob tarzidagi muloqot namunalarini biz davra suhbatlari, brifinglar, munozara va matbuot anjumanlarini kiritishimiz mumkin. Intervyu savol beruvchi shaxs (journalist) va o’z mulohazalarini, bilim va tajribalarini savollarga javob berish orqali ifodalayotgan shaxsdan iborat bo’lan jarayondir. Kundalik suhbatlardan farqli ravishda intervyu jarayonida beriladigan savollar aksariyat holatlarda aniq belgilab olinadi va respondentdan mana shu savollarni to’liq yoritib berish so’raladi. Real hayotdagi dialoglarda esa insonlar o’rtasidagi rollar shiddatli tarzda almashib turadi, bir inson bir vaqtning o’zida ham savol beruvchi, ham javob beruvchi vazifasini o’tashi mumkin. Intervyuning pragmatik doirasi va kommunikativ maqsadi haqida so’z yuritadigan bo’lsak, media-hodisa sifatida savol-javob orqali insonlarga ma’lumot yetkazish, ko’ngil ochish va ta’sir etish kabi funksiyalarni o’z ichiga oladi. Ingliz tilida olib borilgan bir qancha intervyu namunalari misolida journalist va respondent o’rtasidagi savol-javoblarning pragmatik maqsadini tahlil qilamiz. Mashhur

biznesmen, Ali Baba korparatsiyasining asoschisi Jek Ma dan ingliz jurnalistlari (World Economic Forum) tomonidan olingan intervyuning boshlanish nuqtasini ko’rib chiqamiz:

- *Welcome Jack Ma!*

- *Thank you!*

- *We have all become very cognizant of Jack and his story and when Alibaba went public with the largest IPO in history, we knew a lot more about him and I want to talk about his personal story....I begin with this question though Jack why are you back at Davos?*

- *It is a long break for seven years, I think my last trip here was year 2008....*

- *How big is Alibaba?*

- *We have over a hundred million buyers visiting our site shopping every day. We created 14 million jobs for China directly...*

Yuqoridagi intervyu tahliliga e’tibor qaratadigan bo’lsak, intervyuning birinchi qismida jurnalist savol berish asnosida Jek Ma va uning muvaffaqiyatlari, Ali Baba korparatsiyasining xalqaro biznes olamidagi darajasi haqida ma’lumot berib o’tdi. Lekin birinchi berilgan savol oddiy va jo’n bo’lishiga qaramasdan (“*Why are you back at Davos?*” – *Davosga nega qaytdingiz?*) Jek Madan faoliyati haqida batafsil ma’lumot berishni, ya’ni mana shu kungacha bosib o’tgan yo’lini tavsiflab berishni talab etdi. Bu ham jurnalistning savoldan ko’zlangan pragmatik maqsadi deya bemalol ayta olamiz. Ikkinci savol (*How big is Alibaba?-Alibaba korparatsiyasi qanchalik darajada katta?*) ham oddiy, norasmiy tilda berilgan bo’lsa, aslida respondent tomonidan “*Alibaba korparatsiyasi haqida gapirib ber, ma’lumot ber?*” tarzida qabul qilinishni taqazo etadi. Javobda ifodalangan axborot hajmi ham shunga mos ravishda katta va aniqlikni talab etadigan bo’lishi shubhasizdir.

Ingliz tilida ham savol javob dialogik diskursi asosan so’zlashish uslubiga xosdir. Dialogni esa biz umumiylar mavzuda so’zlashuvchi ikki yoki undan ortiqroq shaxsning suhbatini deya tushunamiz. Ko’plab vaziyatlardagi savol-javob tarzidagi dialoglarni o’rganish jarayonida javob replikalarida uzundan-uzoq jumlalar uchramasligini, ya’ni fikr judayam ixcham tarzda bayon etilishini ko’rishimiz mumkin. Buning asosiy sababi dialog jarayonida so’zlardan tashqari bir qancha ekstralengvistik faktorlar (tashqi omillar) muhim ahamiyat kasb etadi. Bular jumlasiga biz situatsiya, nutq vaziyati, mimika, jest, adresat va

adresantning dialog mavzusi bo'yicha umumiy ma'umotlari, tajribalari kabi omillarni kiritishimiz mumkin. Yuqorida sanalgan faktorlar savol-javob jarayonida, gap strukturasida ma'lum bir bo'laklarning ellipsisga uchrashiga sababchi bo'ladi. **Ellipsis** (yunonchada- elleipsis –tushurilish, tushish) – nutq unsurlarining tushib qolish hodisasiidir [1]. Ellipsis jonli so'zlashuv nutqi bilan birga badiiy matnlarda ham kuzatiladigan holatdir.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбек тили терминларининг изоҳли лугати / Ҳожиев А. – Т.: Ўқитувчи. 2000. – 116 б.
2. Беркаш Г.В. Логико-грамматическая природа вопроса и ее реализация в вопросно-ответных структурах английской диалогической речи / Дисс. ... канд. филол. наук - Харьков, 196B. - 287 с
3. Балли Ш. Общая лингвистика. – М.: Издательство иностранной литературы, 1955. - 416 с.
4. Воронин В. В. Репликативные классы негативных речевых актов в современном немецком языке // Коммуникативно-прагматические классы и типы предложений: 1992. – С. 15-24.